SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 5
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

BOSHLANG‘ICH MAKTABDA FANLARARO VA MAVZULARARO INTEGRATSIYANI TASHKIL ETISH
ORGANIZING INTERDISCIPLINARY AND CROSS-CURRICULAR INTEGRATION IN PRIMARY SCHOOL

Ro‘zmatova Irodaxon Oxunjon qizi

Qo‘qon universiteti, Boshlang‘ich ta’lim, 5-23 guruh 4-kurs talabasi

iroshhon@gmail.com

Kalit so‘zlar
Boshlang‘ich ta’lim, fanlararo integratsiya, mavzulararo integratsiya, pedagogik innovatsiya, raqamli avlod, o‘qituvchining innovatsion faoliyati, ta’lim sifati, PISA xalqaro baholash dasturi, vertikal integratsiya.
Keywords
Primary education, interdisciplinary integration, cross-curricular integration, pedagogical innovation, digital generation, teacher’s innovative activity, quality of education, PISA international assessment program, vertical integration.

Kirish. So‘ngi yillarda Boshlang‘ich ta’lim sohasida ko‘plab yangicha islohatlar yo‘lga qo‘yilmoqda. So‘nggi qarorlar doirasida ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha qo‘yilgan eng muhim konseptual vazifa – bu ta’limning bog‘chadan oliygohgacha bo‘lgan barcha bosqichlarini yagona vertikal tizim sifatida integratsiya qilishdir. Bu borada yangi tashkil etilgan Ta’lim va ilm-fan vazirligi zimmasiga boshlang‘ich ta’limda o‘quv dasturlarini o‘zaro muvofiqlashtirish va takrorlanishlarni bartaraf etish vazifasi yuklatildi.

Introduction. In recent years, numerous innovative reforms have been launched in the field of primary education. Within the framework of recent decrees, the most crucial conceptual task set for the development of the education system is the integration of all stages of education—from preschool to higher education—into a single vertical system. In this regard, the newly established Ministry of Education and Science has been tasked with coordinating curricula in primary education and eliminating redundancies.

Xalqaro Standartlar va Baholash Tizimi: PISA xalqaro reytingida O‘zbekistonlik o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha 32 pog‘onaga yuqorilab, 48-o‘rinni egallagani boshlang‘ich sinflardanoq mantiqiy fikrlash va integratsiyalashgan darsliklarni joriy etish samarasi hisoblanadi. Qarorlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fan va tabiat qonuniyatlarini yaxlit idrok etish ko‘nikmasini (STEAM yondashuvini) shakllantirish bosh maqsad qilib qo‘yilgan.

Yangi asr didaktika va o‘qitish usullarida sezilarli o‘zgarishlarni olib keldi. 20-asr pedagogikasi 21-asr pedagogikasidan farq qiladi. Yigirma birinchi asrning boshidan boshlab milliy va jahon ta’limi taraqqiyotida ko‘plab o‘zgarishlar ro‘y berdi. Hozirgi kunda jamiyatning internetlashuvi va raqamli texnologiyalarning ta’limga kirib borishi eng ko‘zga tashlanadigan hodisadir. Maktab o‘quvchilarining hozirgi avlodi raqamli, ijtimoiy avlod sifatida tanilgan. Bilim - o‘qish orqali bilim olishdan o‘qituvchining monologidan vizual idrok etish yoki sinf muhokamasiga o‘tish. Raqamli texnologiyalar bizning yashash tarzimizni, qanday muloqot qilishimizni, qanday fikrlashimizni, his-tuyg‘ularimizni, boshqalarga qanday ta’sir qilishimizni, ijtimoiy ko‘nikmalar va ijtimoiy xulqatvorimizni o‘zgartirmoqda. Pedagogik innovatsiyalar - bu pedagogik faoliyatdagi innovatsiyalar, ta’lim va tarbiya mazmuni va texnologiyasidagi o‘zgarishlar, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan. [1]

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga integratsiyalangan darslar o‘tish mumkin, chunki bir o‘zi hamma fanlarni o‘qitadi. O‘quvchilarining yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, integratsiyani murakkab ilmiy nazariyalar emas, balki hayotiy va ko‘rgazmali misollar asosida tashkil etish talab etiladi Bolalar boshlang‘ich ta’limda juda ko‘p hodisa, tushuncha, fanlar bilan tanishishadi, lekin ular to‘g‘risida elementar tushuncha olishadi. Keyingi yillarda mavjud bilimlarini to‘ldirib va kengaytirib borishadi. Shuning uchun o‘qituvchi bir xillikdan qochishi va rang - barang shakl va usullarda dars o‘tishi talab etiladi. [2]

Fanlararo integratsiya — ikki yoki undan ortiq fanlar mazmunini o‘zaro muvofiqlashtirgan holda bitta dars yoki darslar turkumida o‘rganishdir. [2] Masalan, ona tili darsida o‘qilgan matn orqali tabiatshunoslik (atrofimizdagi olam) darsidagi mavzuni mustahkamlash yoki matematika darsida rasmlar chizish orqali tasviriy san’at

elementlaridan foydalanish. Bu o‘quvchiga qanday ijobiy ta’sir o‘tkazadi degan savolga quyidagicha javob beramiz. Turli fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish, mavzuni mustahkamlash, olgan bilimlarini hayotda qo‘llash va mustaqil fikrlash eng asosiysi dunyoni bir butun yahlit holda ko‘rish imkonini beradi. [4].

O‘qituvchi, bir tomondan, o‘qitishning mazmuni, usullari, strategiyalari va texnologiyalarini loyihalashni sub’ektiv ravishda hal qiladi, ammo ta’lim islohotlarini amalga oshirish unga bog‘liq. [3]. Boshqa tomondan, davlat va jamiyat pedagogik madaniyatni, pedagoglar tafakkurining qadriyatli tomonlarini kasbiy, kasbiy tayyorgarlik va pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimi orqali efirga uzatadi. Ong va kasbiy faoliyatning subyektivligi zamonaviy pedagogika fanining tamoyillaridan biridir. [1]. Ya’ni, innovatsion usullardan foydalanish yoki foydalanmaslik o‘qituvchi shaxsiga, uning metodik malakasiga, pedagogik mahoratiga bog‘liq. Pedagog kadrlar tayyorlash tizimining vazifasi ana shunday

ehtiyojni dolzarblashtirish, uslubiy kompetentsiyani shakllantirishdan iborat. O‘qituvchining muhim vazifasi - uning pedagogik salohiyatini doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqish va rivojlantirish; shunda o‘qituvchi misoli ta’sirida o‘quvchi faol va malakali shaxs bo‘ladi. [1].

Integratsiyalangan darsni tashkil etishda o‘qituvchi bir haftalik dars rejasi fanlarda mavzularni bir-biriga mos kelishiga ahamiyat berib rejalashtirsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki mavzularni uyg‘unlashtirish uchun, izchillik uchun bu juda muhim. Darsdagi faoliyati davomidagi muammoli vaziyatlarni hisobga olishi kerak. O‘quvchilar ta’lim tarbiya jarayonida qanday qiyinchiliklarga uchramoqda. Mavzularni yanada tushunarli va esda qolishi uchun integratsiyalashgan darslardan va metodlardan foydalanadi. [1, 6].

Interaktiv va o‘yinli metodologiya. Aytaylik “Tarbiya’’ darsida bolalar bilan bir necha fanlarni integartsiya qilish mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilar o‘rtasida jamoa bo‘lib ishlashini tashkil etadi. Muvzu “Sehrli so‘zlar’’(muomala madaniyati). Tashkiliy qisimda do‘konga sayohatni sahnalashtirib o‘quvchilarga ro‘llar bo‘lib beriladi. Bir o‘quvchi do‘konchi, yana biri oluvchi, bir kishi esa savdo rastasida bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsa buyumlar nomlarini doskaga yozib chiqadi. Bu orqali ona tili faniga

integratsiya qilib gramatik qoidalarni yaxshi o‘zlashtirilganlik tekshiriladi. Ikki kishi buyumlar rasmini chizadi (tasviriy san’at). Sahna ko‘rinishi boshlanadi. O‘qituvchi do‘konga kirganda qanday sehrli so‘zlardan foydalanishni eslatib o‘tadi.(Tarbiya) Eng avval salom berish, iltimos qilish, rahmat aytish kabi. Do‘konchi sotiladigan narsa buyumlarga narh qo‘yadi. Xaridor bir nechta narsa sotib oladi. Narxlarni jami qancha bo‘lganini hisoblaydi. (Matematika) Oluvchi to‘lovni oshig‘i bilan qiladi va do‘konchi qancha qaytib berishi kerak ekanligini hisoblaydi. Bolalar shunday qilib matematik bilimlarini sinovdan o‘tkizishlari mumkin.

Natijada o‘quvchilar 4ta fandan o‘z olgan bilimlarini sinovdan o‘tkizib olishadi. Mavzularni mustahkamlash imkonini beradi. Nutqi rivojlanadi, muomala madaniyatiga ega bo‘ladilar. Do‘kondan oladigan narsalarni o‘zlari tanlash orqali erkin fikrlashni rivojlantiradi. Nafaqat eshitish xotirasi ko‘z, til xotiralari orqali olgan bilimlari puxta bo‘ladi. Ijtimoiy voqealardan habardor bo‘ladi. Jamiyatda shaxs bo‘lib shakllanishining ilk bosqichlarini o‘tkizadi. Asosiysi jamoa bo‘lib ishlashni o‘rganadi. Fanlarni va mavzularni hayotga bog‘lab tushuntirish bolada yanada aniq va tushunarli bo‘lishiga olib keladi. Bunday darslarni tashkil etishda o‘qituvchidan samiymiylik va o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida empatiya bo‘lishi kerak. [2, 4]

Fanlararo integratsiyaning o‘quvchilarga beradigan asosiy afzalliklari:

Bilimlarni yaxlitlashtiradi — turli fanlarda o‘rganilgan ma’lumotlarni o‘zaro bog‘lashga yordam beradi.

Mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi — muammolarni tahlil qilish va yechim topishga o‘rgatadi.

Ijodkorlikni oshiradi — yangi g‘oyalar yaratish va noodatiy yondashuvlardan foydalanish imkonini beradi.

Amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi — nazariy bilimlarni kundalik hayotda qo‘llashga o‘rgatadi.

Darsga qiziqishni kuchaytiradi — mavzularni turli fanlar bilan bog‘lash orqali o‘quvchilarning faolligini oshiradi.

Muammolarni kompleks hal qilishga o‘rgatadi — bir masalaga turli fanlar nuqtayi nazaridan yondashish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi — guruhda ishlash, fikr almashish va o‘z fikrini asoslashga yordam beradi.

Tajribamizda o‘quvchilarning nafaqat eshitish, balki ko‘z va til (kinestetik hamda motor) xotiralari orqali bilimlarni puxta o‘zlashtirgani aniqlandi. Bu natija L.S. Vigotskiyning “Bola shaxsining shakllanishida sensor integratsiya va faoliyat yondashuvi’’ nazariyasini to‘liq tasdiqlaydi. [5]**.** Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda (masalan, R. Ishmuhamedov, 2008) vizual va amaliy ta’sir uyg‘unlashganda ma’lumotning xotirada saqlanish koeffitsiyenti 25% dan 75% gacha ko‘tarilishi ta’kidlangan. [1]**.**

Nutq, muloqot va ijtimoiy moslashuv (Sotsializatsiya): Dars davomida bolalarda nutq o‘sishi, muomala madaniyati va jamiyatda shaxs bo‘lib shakllanishning ilk bosqichlari kuzatildi. Bu holat pedagog olima R. Mavlonovaning integratsiya pedagogikasiga oid tadqiqotlariga mos keladi. [2] Adabiyotlarda keltirilishicha, maktab hayotining ilk yillarida fanlararo integratsiya bolani faqat akademik bilim bilan cheklamay, uni real ijtimoiy muhitga (ijtimoiy voqealardan xabardorlikka) tayyorlaydi. [2, 4]**.**

Pedagogik yangilik - bu pedagogika sohasidagi yangilik, uning tarkibiy qismlarini va umuman ta’lim tizimining xususiyatlarini yaxshilaydigan barqaror elementlarni (innovatsiyalarni) o‘quv muhitiga kiritadigan maqsadli progressiv o‘zgarishdir**.** [1]**.**

Xulosa. O‘qituvchi faoliyatini o‘zgartirmay turib, uning mas’uliyati va faolligini oshirmasdan turib ta’limda bir qadam oldinga siljib bo‘lmaydi. [3] Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo‘nalish pedagogik innovatsiya va ta’lim jarayonini yangilash g‘oyalarining paydo bo‘lishi natijasida o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatida ham yangi yo‘nalish o‘qituvchining innovatsion faoliyati‖ tushunchasi paydo bo‘ldi. [1]**.** Innovatsion faoliyat pedagogning o‘z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondoshuvni nazarda tutadi. Ta’limdagi innovatsiyalar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma’qul bo‘lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e’tirof etish lozim. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri ta’limga yo‘naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o‘rtasidagi qiyinchilik bilan yengib o‘tiladigan uzilishlardir**.** [1]**.**

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish). – Toshkent: “Iste’dod’’ jamg‘armasi, 2008. – 180 b.

2. Mavlonova R., Rahmonqulova N. Boshlang‘ich ta’limda integratsiya pedagogikasi. – Toshkent: “Ilm Ziyo’’, 2013. – 210 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.

4. PISA xalqaro dasturi doirasida o‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha metodik qo‘llanma. / Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. – Toshkent, 2024.

5. Vigotiskiy L. S. Pedagogik psihologiyasi. – Maskva: ACT, 2005. – 671 b

6. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “O‘qituvchi’’, 2004. – 120 b.

7. Ziyomuhammadov B. Pedagogika. – Toshkent: “Turon-Iqbol’’, 2012. – 160 b.